

***“O‘ZBERISTON TEMIR YO‘LLARI” DAVLAT AKSIODORLIK TEMIR YO‘L
KOMPANIYASI
TOSHKENT TEMIR YO‘L MUHANDISLARI INSTITUTI***

***“Muhandislik kommunikatsiyalari va tizimlari”
kafedrası***

***“Temir yo‘l oqova suvlari chiqarish va tozalash tizimlarini loyihalash, qurish va
montaj qilish” fanidan***

Kurs loyiha ishi

***Bajardi: KQ-12 guruh talabasi
Xonboboyev A.***

Tekshirdi: Ergashev Sh.Sh.

Toshkent - 2013 y.

**«O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI» DAVLAT-AKSIONERLIK
KOMPANIYASI**

Toshkent temir yo'l muhandislari instituti

«Muxandislik kommunikatsiyalari va tizimlari» kafedrası

Fakultet «Qurilish» Guruh KQ-12 Talaba Xonboboyev Abdullajon

KURS LOYIHA ISHI UCHUN VAZIFA

1. Qurilish Farg'ona viloyatida olib boriladi,
2. Aholi zichligi: 1 tuman $R_1 = 350$ odam/ga, 2 tuman $R_2 = 650$ odam/ga
3. Tuproq tarkibi Suglinok
4. Tuproq suvlari 1.5-2.5 m chuqurlikda
5. Tuproqning muzlash chuqurligi 0,7-1 m
6. Tumanning seysmikasi 7-8 ball
7. Suv havzasiga oqava suvlarning tushirilishini nazarda tutish
8. Shahar va temir yo'l stansiyaning yirik planning mashtabi 1: 5000
9. Gorizontallarhar 1 m da o'tkazilgan

Havzada suv chuqurlig i H m	Havzada 95% suv sarfini ta'minlash Q m ³ /sek	Suvning Oqish tezligi V m/s	Xavzadagi suzuvchi zarra tarkibi mg/l	BPK ₂₀	Aralashmal ikislorod tarkibi O ₂ mgo/l	Harorat t ⁰ C
1	96	3.22	16	3.5	-	18

Loyiha tarkibi:

1. Tushuntirish qismi

2. Tozalash inshooti yirik plani M 1:5000

Topshiriq berildi: «_____» _____ 2013 yil

Loyiha qabul qilish vaqti: «_____» _____ 2013 yil

O'qituvchi _____ Ergashev Sh.Sh.

Talaba _____ Xonboboyev A.

Qurilish ob'ektining iqlimi va tabiiy sharoitlari

FARG'ONA VILOYATI

Fizik-geografik holati, ma'muriy-hududiy bo'linish.

Farg'ona viloyati, O'zbekistonning sharqiy qismida joylashgan va 10.4 ming km² yuzani egallaydi.

Viloyatning tarkibiga 15 ta ma'muriy tumanlar kiradi: bular, Oltiariq, Ohunboboyev, Beshariq, Buvayda, Bog'dod, Dang'ara, Quva, Rishton, So'x, Toshloq, Uchko'prik, O'zbekiston, Farg'ona, Furqat, Yozyovonlardir. Viloyatda 9 ta shaharlar, 7 ta qishloq posyolkalari va 6 ta tuman markazlari mavjud.

Farg'ona viloyatining yerlarini asosiy qismi chopilgan va madaniy o'sinliklar bilan ekilgan. Aholining asosiy qismi, Farg'ona – Marg'ilon sanoat tuguni va Qo'qon shaxri xududlarida yashaydi. Bu shaxarlarda, viloyatning xamma asosiy sanoati mujassamlashgan. Bu – neft va kimyo sanoati, paxtaqog'oz kombinati, paxtaqog'oz zavodi, ipak o'rash va tikish fabrikalari, neft va kimyo sanoati, konserva va mexanik – ta'mirlash zavodlari, qurilish industriya korxonalari, yirik temir yo'l tugunlaridir.

Qolgan yirik shaharlarda va shahar posyolkalarida – tikish fabrikalari, konserva zavodlari, go'sht- sut korxonalari qurilgan va ishlaydi.

Tabiiy – iqlimiy sharoitlar.

Farg'ona viloyatida iqlim keskin iqlimiydir. Havoning o'rta yillik xarorati +12 -14 C. Eng sovuq oy yanvar bo'lib, minimal xarorati -20 -26.5 °C. Eng issiq oy iyul bo'lib, maksimal xarorati +40.5 +42 °C. Yong'inlar miqdori yiliga 177mmdir. Seysmik tumanlash bo'yicha, xudud 8 ballik zonaga kiradi.

Gidrografiya va gidrogeologiyasi

Farg'ona viloyatining asosiy suv arteriyasi bo'lib – Sirdaryo daryosi xisoblanadi. Bu yerda, shuningdek, Isfayramsoy, Shoximardonsoy, So'x, Marg'ilonsoy, Oltiariqsoy, Quvasoy va Besholishsoy daryolari oqib o'tadi.

Isfayramsoy va Shoximardonsoylarni suv bilan taminlanganligini yetarlicha bo'lmaganligi uchun, viloyatning xududini asosiy qismini yirik irrigatsiya konlari sug'oradi, bular navbatida Sirdaryo daryosida o'zining boshlanishini oladi. Bular katta Farg'ona, Janubiy – Farg'ona va Andijon kanallaridir.

Gemorfologik tuzili bo'yicha, gruntlar galechpiklar va o'rmonsimon suglinkalar bilan keltirilgan. Gruntlar 1-turdagi kirib ketishlikka taaluqlidir. Grunt suvlari 0.5 dan 6.0 m gacha bo'lgan chuqurlikda, aloxidagi yerlarda esa bir necha o'n metr chuqurliklarda yotadi.

Grunt suvlarining oziqlanishi, daryolar tomonidan yer osti oqimlari xisobiga, shuningdek, atmosfera yog'inlari va sug'orish suvlarini sizib o'tishi xisobiga amalga oshadi.

Grunt suvlari yuqori joylashish zonasida, betonga va metalga nisbatan qattiq minerallashgandir.

Suv ta'minoti manbai

Farg'ona viloyatining asosiy suv ta'minoti manbai bo'lib, konlarning yer osti suvlari xisoblanadi; bular: Isforin, So'x, Oltiariq – Besholish, Chimyon – Avval, Yormozorlardir.

Mineralizatsiyaligi 1 mg/l gacha bo'lgan chuchuk yer osti suvlari maydon bo'yicha notekis joylashgan bo'lib, ularning asosiy zaxiralari viloyatning janubiy – g'arbiy qismida mujassamlashgandir.

Oxirgi 10 yillikda, antropogen yuklamalarni oshib ketishi natijasida, suv oqimlaridagi suvning sifati ancha yomonlashib ketdi.

Buning asosiy sababi esa, sanoat, communal va chorvachilikdan chiqqan oqava suvlarini, tajriba ko'p miqdorda pestisid va zaxarli kimyoviy moddalari bo'lgan mineralli kollektor – drenaj suvlarini suv ob'ektlariga tashlash xisoblanadi.

Chuchuk yer osti suvlarining sifati asosan qattqlik bir qator tumanlarda me'yordan oshib ketgan ko'rsatgichlardan tashqari, ichimlik suv ta'minoti manbalariga qo'yiladigan talablarga javob beradi.

Qo'qon shaxri

Farg'ona vodiysining janubiy – g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, Toshkent – Namangan va Toshkent temir yo'lida yirik temir yo'l tuguni xisoblanadi. Bu yerda yashayotgan yashovchilar soni – 181.0 ming kishi. Yashash fondi bir qavatli va ikki qavatli uylardan iborat. Shaharning markaziy va shimoliy qismida ko'p qavatli qurilma joylashgan. Hozirgi vaqtda uning sharqiy qismi qurilmoqda.

Quvvati 50 ming m^3 /kun bo'lgan markazlashtirilgan kanalizasiya mavjud. Shaharning asosiy qismi markazlashtirilgan issiq va gaz ta'minoti bilan ta'minlanadi.

Irrigatsiya tarmog'ining yomon xolatdaligidan ichimlik suvini aholi sug'orishlariga ishlatadi, bu esa uni defitsit bo'lishiga olib keladi.

Shaharda quvvati 1506 ming m^3 /kun bo'lgan markazlashgan suv ta'minoti tizimi mavjud bo'lib, u So'x daryosi chiqish konusning yer osti suvlarida bazalashgandir.

Suv olish qurilmasi quyidagilardan amalga oshiriladi:

Shaharning xar xil tumanlarida joylashgan 45 ta quduqdan;

Shaharning janubiy – sharqiy qismida joylashgan, “Ming-Tut” suv olish qurilmalarining 11 ta qudug'idan;


Hajmi 2000 m^3 bo'lgan 2 ta rezervuar, 2-ko'tarish nasos stansiyasi, xlorator bo'lgan “Ming-Tut” suv olish qurilmasi xududida qurilib yetkazilmagan suv taqsimlash tuguni joylashgan.

Suv olish qurilmalarida 1 – poyas sanitary – himoyalash zonasi tashkillashtirilgan. Suvni zararsizlantirish olib borilmaydi.

Suv ta'minoti sxemasi quyidagicha: Yer osti suvlari “Ming-Tut” suv olish qurilmasidan 700 mm bo'lgan va shahardagi quduqlardan, shahardagi xalqalardan tarmoqqa beriladi.

Suvning xisobi faqat “Ming-Tut” suv olish qurilmasidan bo'lgan vodovodga olib boriladi.

Shahardagi quduqlarda suv o'lchash qurilmalarining yo'qligi shahar tarmog'iga berilayotgan suvning xaqiqiy hajmini aniqlashga yo'l qo'ymaydi.



1 jadval

Shamol guli.

Oy	Sh	ShShq	Shq	JShq	J	JG'	G'	ShG'
Yanvar	31	34	7	2	12	10	2	2
	2,3	2,4	1,6	1,5	2,3	2,5	1,4	1,7
Iyul	23	26	7	2	11	20	8	3
	1,8	1,7	1,4	1,2	1,7	2,0	1,6	1,4

Oqova suvlarni tozalash uslublarning inshootlarini tanlash.

Tozalanishning talab etiladigan tozalash darajasini ekologik xisobiga kura axoli turar joylaridan Oqova suvlarni tozalash uchun odatda ikki yoki uch boskichli tozalash sxemasi tanlanadi. Bunga mexanik va biokimyoviy tozalash; tozalangan Oqova suvlari zararsizlantirilishi; uchinchi boskich sifatida Oqova suvlarni suv xavzasiga tushirish jarayoni kabul kilingan.

Mexanik tozalash usullari – suvda 60% gacha suzuvchi moddalarini tindirish va 20% KBE imkonini beradi. Mexanik tozalash inshootlari shunday ketma ketlikda joylashtiriladiki bunda suzuvchi moddalarni katta-kichikligiga kura ajratish mumkin.

Mexanik tozalashning birinchi boskichi-elakdan utkazishdir. Bunda 16-8 mm gacha bulgan suzuvchi moddalardan tozalanadi. Bu jarayon elaklar va panjaralar yordamida amalga oshiriladi. Ikkinchi boskich – kochirma va gravitatsiya kuchlar maydonida tindirishdir. Bu jarayon xam 2ta dan iborat. Birinchi 0,5 mm gacha bulgan suzuvchi moddalar ajratiladi Qumtutgichlar, tsentrifuga va gidrotsiklonlar yordamida). Ikkinchi pogonada 0,05 mm gacha bulgan suzuvchi moddalardan tozalanadi (turli tindirgichlar yordamida).

Biokimyoviy tozalash uslublari tozalanayotgan suvni biologik jixatdan organik iflosliklardan deyarli tulik ozod kiladi. Biokimyoviy tozalash mikroorganizmlar yordamida amalga oshiriladi. Ulardan faol loyqa va bioplenkalar tashkil etilgan. Tozalash jarayoni tabiiy va sun'iy sharoitlarda amalga oshiriladi.

Tabiiy sharoitda biokimyoviy tozalash inshootlariga sugoruvchi dalalar, filtratsion dalalar va biologik xavzalar kiradi. Sun'iy sharoitda biologik tozalash inshootlariga biofiltrlar va aerotenklar kiradi. KBE buyicha tozalash darajasi 80-90% ni tashkil etadi. Bugungi kunda ekologik biokimyoviy inshootlar afzal kuriladi.

Zararsizlantirish – bu jarayon tozalangan Oqova suvlar sanitar maishiy xavzalarga tushirilganda kabul kilinadi. Odatda xlor yoki natriy gippoxlorid yordamida amalga oshiriladi.

Oxirigacha tozalash – biologik tozalangan Oqova suvlarni filtratsiya, mikrofiltratsiya va kontaktli tindirish usulida amalga oshiriladi.

Oqova suvlarni kontsentratsiyasiga karab tozalashning quyidagi boskichlar va inshootlari kabul qilinadi:

16 jadval

Oqova suvlar kontsentratsiyasi	Mexanik tozalash	Biokimyoviy tozalash	Oxirigacha tozalash
Suzuvchi zarrachalar 300 mg/l gacha, BPK 300 mg/l gacha,	Panjaralar kum tutkichlar, birlamchi tindirgichlar	Biosizgichlar, retsirkulyatsiya bilan, faol loyqa regeneratsiyali aerotenklar yoki ikkilamchi tindirgichlar	Sizgichlar yoki biofiltrlar

Ishlab chiqarish sarfiga kura quyidagi tozalash inshootlari tanlanadi.

Panjaralar.

Panjaralar Oqov asuvlarn ikeyinchalik tulik tozalashga tayyorlaydigan inshoot bulib, ular Oqova suvdan yirik iflosliklarni utash uchun muljallangan. Kuprok yirik iflosliklarni tuxtatish uchun panjara uklarining oraligi imkon boricha kichik bulishi

kerak. Shuni xisobga olgan xolda panjara ukrlarining oraligi 16 mmga teng deb kabul kilinadi. Panjara orasidan okib utayotgan Oqova suvning tezligi 1m/s dan oshmasligi kerak. Panjaralar barcha tozalash stantsiyalarida urnatiladi. Oqova suvlari ularga nasos stantsiyasidan keyin bosim ostida yoki uzi okar usulida uzatilishi mumkin.

Xarakatsiz panjara metall dan yasalgan rama shaklida bulib, uning ichida kator parallel urnatilgan sterjenlar (uklar) mavjud. Ular Oqova suvlar yulida joylashgan.

Panjaralarni utagan iflosliklaridan tozalash jarayoni mexanizatsiyalashgan. Panjaralardan olingan iflosliklar (axlat) maydalagichga uzatiladi. Panjaralarni kulda tozalash ushlanadigan axlat miqdori kuniga 0,1m3 dan kam bulmagan tozalash stantsiyalarida ruxsat etiladi. Bu xolda axlatni zararsizlantirishga yuborish uchun uni konteynerlarga joylashtiriladi

Monster tipidagi panjara maydalagich

Monster tipidagi panjaralar eng ishonchli maydalagich xisoblanadi. U Oqava suv tarkibidagi kattik jismlarni maydalaydi, nasoslarda xosil bo'ladigan muammolarni va kanalizatsiya kollektorlarida tikilishlarni oldini oladi. Shuningdek, keraksiz kattik zarracha yukotilishi tozalash inshootlarini samarali va muxandis-texnik ishchilarini ishini engillashtiradi.

Keyin maydalangan jismlar perforlangan filtrli plastinada ushlab turiladi va aylanadigan shnek orqali yukotiladi. Yukotilgan kattik jismlar, tarkibidagi organik koldiklar ikki zonada yuviladi. Keyin shnek kattik zarrachalarni chikish joyiga olib boradi, usha joyda suvsizlangan segmentlarni kattik zarrachalari tashashdan oldin kushimcha kurtiladi.

Ixcham va tozarok chikindilar yokimsiz xidlarni minimumgacha olib keladi va yukotishga bulgan sarfni kamaytiradi, negaki chikindi maydoniga kamrok suv va organik moddalar yuboriladi.

Panjara maydalagichlar soni quyidagi formuladan aniklanadi:

$$n_1 = \frac{Q_{\max} \cdot \text{coam}}{q_n}$$

Panjara-maydalagich tanlangandan sung uning oraliklar soni aniklanadi:

$$n = \frac{B + \delta}{b + \delta} = 25$$

Panjara oldi suv chukurligi aniklanadi:

$$h_{yt} = \frac{q}{n_{11} \cdot n \cdot 6 \cdot v} = 1,06$$

Bu erda: - maksimal soatlik sarfi, m3/soat; V – panjara oraligida suv tezligi, panjara-maydalagichlar uchun 1.2 m/s kabul kilinadi; n_1 – panjara-maydalagichlar soni. Panjara oldi o`zandagi Oqova suv tezligi:

$$V_1 = \frac{q\omega}{n_1 \cdot B \cdot h_{yt}} = 1,2$$

Panjarada bosim kamayishi:

$$h_m = \beta \left(\frac{\delta}{6} \right)^{4/3} = 0,0002$$

Bu erda: koeffitsienti, panjara uklarining shakliga bog`lik; o`qlar qalinligi (6-8mm)

17 jadval

Panjara-maydalagich hisobi

Panjara-maydalagich hisobi		ПД-600	Monster CMD1810-XD2.0
q oqava suv sarfi	м3/с	0,64	0,64
q oqava suv sarfi	м3/ч	2292,10	2292,10
q resh panjara maydalagichni ishlab chiqarish quvvati	м3/ч	420,00	1 200,00
panjaralar soni ПД-600	шт	5	2
B panjara eni	м	0,64	0,64
V panjara oldidagi suvning tezligi	м/с	1,2	1,2
h _{yt} panjara oldidagi suvning chuqurligi	м	1,06	0,84
v panjara oldidagi suvning kanaldagi oqim tezligi	м/с	0,17	0,62
h panjarada bosim yo'qotilishi	м	0,0002	0,0119
htot umumiy qarshilik	м	0,0007	0,0357
panjaradagi teshiklar soni		25	45
teshiklar eni b		0,01	0,007
maydalagich tishining qalinligi		0,007	0,007

Qumtutgichlar

Tindirgichlarda mineral va organik moddalar aralashmasining ajralishi ulardan chikindilarni olib chikish va keyinchalik metantenk yoki aerob stabilizatorlardan achitish jarayonida ancha kiyinchiliklar tugdiradi. Bu Qumtutgichlarni ishlatilishiga sabab bo'ladi.

Qumtutgichlarning ishi gravitatsion kuchlar kullash asosida amalga oshiriladi. Qumtutgichlar, bularda kum va boshka ogir mineral zarralar chikishi mumkin, lekin organik moddalaridan tashkil topgan chukmalar bulmasligi shart kilib xisoblanadi.

Odatda Qumtutgichlarda ushlangan kum zarrachalarining gidravlik kattaligi 18-22 mm ga teng. Bu Oqova suvlarda mavjud umumiy qum xajmining 65 %ni tashkil etadi. Suvning xarakat tezligi kancha katta bulsa, shuncha okim turbulentligi kuchli bo'ladiva oqim tezligining vertikal tashkil etuvchisi kattalashadi. Shu xolda kumning katta zarrachalari suv bilan birga okib chikariladi. Kichik va engil zarrachalar esa Qumtutgich tagiga chukadi.

Qumtutgichda yigiladigan chikindilar xajmi kup faktorlarga boglik: Oqova suvlarni chiqazish tizimidan, tarmok uzunligidan, uning nishabligidan, foydalanish

sharoitidan, Oqova suvlar tarkibi va x.k. lardan shaxar kanalizatsiyasi uchun mavjud me'yorlariga kura gorizonta va tangentsial Qumtutgichlardagi chukindilar xajmi 0,02 l (tulik bulingan kanalizatsiya tizimi uchun) va 0,04 l (umumiy tizimi uchun) kuniga bir kishi uchun kabul kilinadi, chukindi namligi urta xisobda 60% va zichligi 1,5 t/m³bo'ladi.

Chukindilar noriyalar, kovshlar, gidroelevatorlar, porshenli nasoslar yordamida chikariladilar.Shunda kumlarni Qumtutgichlardan chiqarish uchun gidromexanik tizimi qullaniladi.Qumtutgichlarda ushlanadigan kum zarrachalari chikarilganda ulchanadi.

Tangentsial Qumtutgichlar

Tangentsial Qumtutgichlar chet mamlakatlarda keng tarkalgan.

Oqova suv Qumtutgichga urinma buyicha uzatiladi. Qumtutgich xususiyatlaridan biri uning suv utish yulining kichik chukurligi.Qumtutgichga tushadigan yuklamani 110 m³/m³.s ga teng deya kabul kilinadi. Qumtutgich diametr esa 6 m ga teng deya kabul kilinadi.

Tangentsial Qumtutgichlar quyidagi formula orqali xisoblanadi:

$$F \leq Q_{max} \cdot \frac{q_0}{n}$$

Bu erda: F – rejadani olingan Qumtutgich bulinmasining yuzasi;Q_{max} –Oqova suvlar soat xisobida maksimal kiymati;

n – bulinmalar soni;

q₀ – 1 m² yuzaga tugri keladigan yuklama;

q₀ 110 ? 130 m³/m² soat.

Kichik tozalash inshootlarida tangentsial Qumtutgichlarga tushadigan yuklamani q₀ 60 ÷ 80 m³/m² soatgacha kamaytirish mumkin.

Xisoblar uchun:kamida ikkita bulinma kabul kilinadi; Qumtutgich chukurligi uning yarim diametriga teng bo'ladi; kumning gidravlik yirikligi u₀=18 – 24 mm/s ga teng deb kabul kilinadi; chukmaning xisobiy diametri d_{0 kum}=0,2 – 0,25 mm ga teng deb kabul kilinadi. Aloxida xar bulinmaning diametri:

$$D = \sqrt{\frac{4F}{\pi}} = 2,89$$

Qumtutgich chuqurligi:

$$h_1 = D/2 = 2/2 = 1$$

Konussimon qismining balandligi:

$$h_2 = \sqrt{D^2 - h_1^2} = \sqrt{2^2 - 1^2} = 1,732$$

Konussimon qismining xajmi:

$$V = \frac{\pi \cdot D^2}{4} \cdot \frac{h_2}{3} = 36,41$$

Tutib qolinadigan cho`kmaning xajmi:

$$V_{mud} = N_{k.s.m} \cdot q_{mud} \cdot t = 6,14$$

Bu erda: N_{k.s.m} – yashovchilarning keltirilgan soni;

$$q_{\text{mud}}=0,02 \text{ l/kishi. sut} - 1$$

kishiga tugri keladigan chukma xajmi;

Qumtutgichni ikkita tozalash orasidagi vaqt, $t=1$ sut ga teng deb kabulqilinadi. Qumtutgich konussimon qismining xakikiy tuldirish vakti $t = V/ V_{\text{mud}}$ ga teng.

18 jadval

Qumtutgichning hisobi

<i>Garizanmlat turdagi qum tutguchlarnig suvdagi aylanma xarakati</i>		
Gidravlik mustahkamlik u_0	MM/C	18,70
Koeffitsent K		1,70
Oqava suvning harakat ezligi v	M/C	0,20
Qum tutgich uzunligi L	M	18,18
Oqava suvning max sarfi q	M ³ /C	0,83
Bir bo'limning diametri D	M	2,89
Aloihida qum tutgichning soni n ₁		2,000
Qum tutguchning soni n		1,00
Qum tutguchning xisobiy chuqurligi H _s	M	0,75
Sartament diametri D	M	6,00
O'rta chiziq diametri D ₁	M	5,20
Tarnov eni b	M	0,8
Qum tutguchnung xisobiy eni L ₁	M	16,33
Qum tutguchdagi sevning xaqiqiy tezligi v ₁	M ³	0,24
Qum tutguchning kunlik qoldiq miqdori V	M ³	3,98
Konus qisminig balandligi h ₂	M	5,146
Konus qisminig miqdori V	M ³	36,41
Qum tutguch konis qisminig to'lish vaqti t	CVT	9,16

Birlamchi tindirgichlar

Tindirish xolati Oqova suvlaridan gravitatsiya kuchlar ta'sirida tindirgich tagiga chukadigan yoki kalkib chikadigan yirik dispersli aralashmalarni olib chiqazish uchun muljallangan eng sodda va amalda keng tarkalgan usullaridan biri deb xisoblanadi. Oqova suvlarni talab kilingan tozalash darajasiga karab tindirishni boshka inshootlarida tozalashdan oldin yoki yakuniy tozalash maksadida kullanadi.

Tozalash texnologik sxemasida tindirgichning vazifasiga kura ular birlamchi va ikkilamchi bo'ladi. Birlamchi tindirgichlar Oqova suvlarni biologik tozalash inshootlaridan oldin urnatiladi. Ikkilamchi tindirgichlar biologik tozalangan Oqova suvlarni tindirish uchun muljallangan.

Birlamchi tindirgichlardan keyin Oqova suvda kolgan suzuvchi moddalar kontsentratsiyasi ularning boshlangich tarkibi va kursatkichlariga (zarralarning shakli va kattaligi, zichligi, chukma xosil kilishi, tezligi), shuningdek tindirish davomiyligiga boglik. Yirik suzuvchi moddalarni asosiy massasi chukma sifatida 1,5 soat davomida xosil bo'ladi. Yupka dispersli zarralarning chukma xosil kilish tezligi va suvdan chiqarish tulikligi ularning aglomeratsiya kobiliyatiga boglik.

Birlamchi tindirgichlarda Oqova suvda koladigan suzuvchi moddalarning ruxsat etilgan miqdori biologik tozalashda ishlatiladigan oksidlovchilar turiga kura aniklanadi. Bunga karab tindirish davomiyligi kabul kilinadi. Tulik tozalanishi uchun yuboriladigan Oqova suv tindirgichlarda tindirilgan va tulik tozalanish uchun biofiltrlar va aerotenklarga uzatiladigan Oqova suvida koladigan suzuvchi moddalarining miqdori 150 mg/l dan oshmasligi lozim. Bunda shaxar ichidagi Oqova suvlarni tindirish davomiyligi 1,5 soat deb kabul kilinadi.

Vertikal tindirgichlar

Vertikal tindirgich reja bo'yicha yumaloq, tubi konussimon rezervuardan iborat. Oqovasuv markaziy quvurga keltirilib, u bo'ylab pastga tushiriladi. Markaziy quvurning pastki qismidan chiqishda u oqim yo'nalishini o'zgartiradi va asta-sekin yuqoriga, to'kish tarnoviga tomon jiladi. Bunda, oqovasuvdan zichligi oqovasuv zichligidan yuqori bo'lgan yirik dispersli aralashmalar tushib qoladi. Tindirgichning butun kesimi bo'ylab suv yaxshiroq taqsimlanishi hamda tushayotgan suv quyqani loyqalatmasligi uchun markaziy quvur rastrubli qilib bajarilib, undan quyiroqda qaytargich shit o'rnatiladi.

Tindirgichga kelib tushgan erimagan aralashmaning har bir donachasi suv qatlami bilan birga suv tezligiga teng, ya'ni V tezlik bilan yuqoriga intiladi; shu bilan birga u og'irlik kuchi ta'sirida donacha hajmi va shakli, zichligi hamda suyuqlik yopishqoqligiga bog'liq bo'lgan tezlikda quyiga harakatlanadi.

Oqovasuvda turli gidravlik yiriklikdagi mexanik aralashmalar mavjud, shuning uchun u tindirgichdan biron-bir V doimiy tezlik bilan oqib o'tganida, ushbu aralashma donachalari turli holat egallaydilar. Ulardan ba'zilari ($u_0 - V$ bo'lganida) tezda tindirgich tubiga tushadilar, yana boshqalari ($u_0 - V$) muallaq (vzveshenno'y) holda bo'lsalar, uchinchilari yuqoriga chiqib ketadilar. So'nggilari o'z yo'llarida muallaq donachalar massasiga ega suv zonasi, ya'ni muallaqqatlamga duch keladilar. Undan o'tish jarayonida yirik donachalar bilan to'qnashib, eng mayda donachalar yiriklashib boradilar va bu ularning cho'kishiga olib keladi.

Maishiy oqovasuvlar uchun u qiymati 0,7 mm s ga teng deb olinadi. Tindirish muddati oqovasuvning talab etilgan tozalik darajasiga bog'liq va 30 daqiqadan (filtrlash maydonlaridan avval) 1,5 soatgacha (aerotenk va biofiltrlardan avval) deb qabul qilingan

Tindirgichdagi suv darajasi tindirilgan suv kelib tushadigan qayta quyish (yig'uv) tarnovi cho'qqisi bilan belgilanadi. Bu erdan suv yana tozalash uchun yo'naltiriladi. Oqovasuvdan ajralib chiqqan muallaq donachalar quyqa hosil qilib (bir kecha-kunduzda kishi boshiga taxminan 0,8 l-s dan), sig'imi quyqaning ikki kecha-kunduzlik hajmiga teng deb olinadigan tindirgichning quyqa qismida yig'iladi.

Vertikal tindirgichdagi quyqa gidrostatik bosim ta'sirida 200 mm diametrli, chiqarish joyi tindirgichdagi suv darajasidan 1,5-2 m pastroqda joylashgan quyqa quvuri orqali chiqarib tashlanadi. quyqa namligi – 95%.

Vertikal tindirgichlar gorizontal (yotiq) tindirgichlarga nisbatan ustunlikka ega: bular - quyqani chiqarib yuborish qulayligi va inshoot kamroq maydon

egallashi. Ammo ularning kamchiliklari ham mavjud bo'lib, ulardan quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

a) katta chuqurligi, bu ayniqsa, er osti suvlari mavjud bo'lgan hollarda ularni qurish qiymatini oshirib yuboradi;

b) suv o'tkazish imkoniyatining cheklanganligi, chunki ularning diametri 9 m dan oshmaydi.

Loyiqalashda oqovasuvning vertikal harakati V tezligini tindirgich tutib qolishi kerak bo'lgan muallaq donachalar u_0 qismining eng kichik tinish tezligiga teng deb olinadi.

Vertikal tindirgichlar hisobi

Bir vertikal tindirgichning ishlab chiqarish quvvati quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Q_{\text{set}} = 2.8 K_{\text{set}} (D_{\text{set}}^2 * D_{\text{set}}^2) (u_0 - v_{\text{tb}}) = 554,4$$

bunda D_{set} – tindirgich diametri;

d_{set} - kiritish moslamasi diametri;

u_0 – tutib qolinayotgan donachalarning gidravlik yirikligi, (3.21) formulasiga ko'ra topiladi;

v_{tb} – turbulent tarkibiy qism, , tindirgichdagi oqim tezligi, v_{tb} , ga bog'liq tarzda qabul qilinadi, mm s.

Tindirgichning konstruktiv o'lchamlari 4.3.2.jadvalda keltirilgan.

19 jadval

Vertikal tindirgichlarning asosiy parametrlari

Tindirgich turi	Diametr, D_{set} , m	Qurilish balandligi	
		Silindrik qismi H_{set} m	Konussimon qismi H_{kt}
Birlamchi	4	4,2	1,8
Ikkilamchi	4	2,1	1,8
Birlamchi	6	4,1	2,8
Birlamchi	6	4,2	3,3
Ikkilamchi	6	3	2,8
Ikkilamchi	6	2,1	2,8
Ikkilamchi	6	3	3,3
Birlamchi	9	4,2	5,1
Ikkilamchi	9	3	5,1

Tindirgichning bu turi uchun markaziy quvur uzunligi tindirish zonasi chuqurligiga teng qilib olinadi. Markaziy quvur diametri undagi ishchi oqim tezligidan kelib chiqib hisoblanadi, v_{set} 30 mm s, ya'ni

$$d_{set} = \frac{q_{set}}{v_{set} \cdot 3,6}$$

Rastrub diametri 1,35 d_{set} ga, qaytargich shit diametri esa rastrubning 1.3 diametriga teng deb olinib, yoki 1.76 d_{set} konuslilik burchagi 146° bo'lganida rastrub va qaytargich shit orasidagi ishchi oqim tezligi 20 mm s dan oshmasligi kerak. qaytargich shit tubi va quyqa darajasi orasidagi neytral qatlam balandligi 0,3 m, konussimon taglikning yotliqlik burchagi 50°.

Shundan so'ng tindirgichlar miqdori n k Q_w qset aniqlanib, bunda Q_w – oqovasuvlarning bir soatdagi maksimal sarfi, m^3 soat. quyqa miqdori birlamchi tindirgichlarda tozalashdan avval va undan keyingi muallaq donachalar kontsentratsiyasiga bog'liq ravishda hisoblab aniqlanadi:

$$Q_{mud} = \frac{Q_w \cdot (C_{en} - C_{ex})}{(100 - p_{mud}) \cdot \gamma_{mud} \cdot 10^4} = 5,03$$

Bunda p_{mud} κ 95% - quyqa namligi: γ κ 1.06 ÷ 1.1 r sm³ - quyqa zichligi.

20 jadval


Vertikal tindirgichlar hisobi

	A	B	C	D	E	F
1	Birlamchi tindirgichni tozalash va hisoblash			garizantal ko'rinishdagi vartikal tindirgichlar xisobi		
2	zarralarning gidravlik yirikligini aniqlash u0	MM/C	0,53	u0 tutib qolmayotgan zarrachalar yirikligi	MM/C	0,67
3	tindirish samaradorligi	%	50,00	tindirish samaradorligi	%	50
4	Hset tindirgich oqim o'tish qismisning chuqurligi	M	3,1	tindirgich oqim o'tish qismisning chuqurligi Hset	M	4,2
5	Kset oqim o'tish qismisning o'ziga sig'dirish qobiliyatidan foydalanish ko'fsenti		0,45	oqim o'tish qismisning o'ziga sig'dirish qobiliyatidan foydalanish ko'fsenti Kset		0,45
6	tset tindirish davomiyligi	cek	2010,52	tindirish davomiyligi tset	cek	2010,52
7	n2 daraja ko'rsatkichi		0,26	h1 laboratoria sharoitida cho'kma qatlamning balandligi	M	0,5
8	v_w ishchi oqim tezligi	MM/C	8	daraja ko'rsatkichi n2		0,26
9	Dset tindirgich diametr	M	30	ishchi oqim tezligi v_w	MM/C	10
10	den kirituvchi diametr	M	1,8	Lset tindirgich seksiasi(bo'linmasi) uzunligi	M	48
11	vtb turbulent tarkibiy bo'lak	MM/C	0,04	Bset tindirgich bo'linmasi kengligi	M	12
12	Qset bitta tindirgich ishlab chiqarish quvvati	M ³ /h	554,4	turbulent tarkibiy bo'lak vtb	MM/C	0,05
13	n tindirgich soni	шт	4	bitta tindirgich ishlab chiqarish quvvati qset	M ³ /h	574,13
14	Qmud qoldiq tarkibi	M ³ /h	5,03	tindirgich tarkibi n	шт	4
15	umumiy cho'kindi soni	M3	40,26	quyqa miqdori Qmud	M ³ /h	5,03
16	Cen tindirgichdagi suzuvchi moddalar soni	MT/л	241,52	umumiy cho'kindi soni	M3	40,26
17	Cex tindirgichdan keyingi suzuvchi moddalar soni	MT/л	120,76	tindirgichdagi suzuvchi moddalar soni Cen	MT/л	241,52
18	γmud quyqa zichligi	г/см ³	1,1	tindirgichdan keyingi suzuvchi moddalar soni Cex	MT/л	120,76
19	Pmud quyqa namligi	%	95	γmud quyqa zichligi	г/см ³	1,1
20				Pmud quyqa namligi	%	95


Oqova suvlarni biologik tozalash

Sun'iy sharoitli biologik tozalash uslubi mikroorganizmlarning organik tarkibli oqovalarni, ulardagi organik moddalardan ozuqa sifatida foydalanib, qayta ishlash imkoniyatiga asoslanadi.

Biologik tozalash inshootlarida mikroorganizmlarning oziqlanish jarayoni aerob sharoitda kechib, buni quyidagicha ko'rsatish mumkin:



hujayraning energetik ehtiyojlari.



hujayra moddasi

Biokimyoviy reaksiyalar mikroorganizmlar ajratadigan fermentlar yordamida amalga oshadi. Sun'iy sharoitda biooksidlanish uslublari mikroorganizmlar yuklanish materialiga mahkamlanadigan biologik filtrlarda, yoki quyqa bo'laklari erkin suzib yurgan elaklangan suvga to'la rezervuardan iborat aerotenklarda amalga oshiriladi.

Faol loyqaflokulyatsiya imkoniga ega bo'lgan mikroorganizmlar suspenziyasidan iborat. Loyqabiotsinozi shakllanishining eng muhim omili – ishlov berilayotgan suv tarkibi va loyqaga tushgan kuchlama ko'rsatkichidir. harorat, aralashtirish, erigan kislorod kontsentratsiyasi loyqalar sifat tarkibini deyarli o'zgartirmaydi, lekin mikroorganizmlarning turli guruhlarining miqdor nisbatiga ta'sir ko'rsatadi.

Loyqaholatini ko'p martalab kuzatish aerotenklarda oqovasuvlarning tozalanish sifati va loyqadagi bir hujayralilar miqdori orasidagi umumiy bog'liqlik mavjudligini aniqlash imkonini berdi. Bu inshootlar ishini biologik jihatdan tahlil qilish uchun asos vazifasini o'taydi.

Aerotenklar

Aerotenklardagi oqovasuvlarni biologik tozalash faol loyqamikroorganizmlarining hayotiy faoliyati oqibatida yuz beradi. Oqovasuv to'xtovsiz aralashtirilib, havo kislorod bilan to'yinguniga qadar aeratsiya qilinadi. Aerotenklar quyidagi belgilariga ko'ra tasniflanadi:

- 1) oqim tuzilmasi (strukturasi) ga ko'ra- siqib chiqaruvchi aerotenklar, aralashtiruvchi aerotenklar, oqovasuvlarni yoyib qabul qiladigan aerotenklar.
- 2) faol loyqani regeneratsiyalash usuliga ko'ra – regeneratori aloqida joylashgan aerotenklar, regeneratori bilan qo'shib ishlangan aerotenklar.
- 3) loyqaga tushadigan yuklamasiga ko'ra – yuqori yuklamali, oddiy va past yuklamali.
- 4) bosqichlar soniga ko'ra – bir, ikki va uch bosqichli.
- 5) konstruktiv belgilariga ko'ra – to'g'ri burchakli, yumaloq, kombinatsiyalashgan, oqimga qarshi, filtrtenklar, flototenklar, yoritgich-aerotenklar, tindirgich-aerotenklar va h.k.
- 6) aeratsiya tizimi turiga ko'ra – pnevmatik, mexanik, kombinatsiyalashgan, gidromexanik yoki pnevмомexanik. Siqib chiqargich aerotenklar inshoot boshida boshlang'ich suv va tsirkulyatsiya loyqasining markazlashgan kiritish va oxirida loyqaaralashmasini chiqarish joyiga ega. Oqovasuv asta-sekin kirish joyidan chiqish joyiga jilib boradi. Bunda kirib kelayotgan va avval kelib tushgan suv faol aralashib ketmaydi. Loyqasuvining reaksiyasi o'zgaruvchan, chunki inshoot

boshida u yuqori kontsentratsiyalashgan bo'lib, bu uning oksidlanish tezligi oshishini ta'minlaydi. Aeratsiya davri qisqaradi, ammo aerotenk uzunligi bo'ylab suv tarkibining o'zgarishi loyqa adaptatsiyasini murakkablashtiradi va uning faolligini susaytiradi.

Siqib chiqaruvchi aerotenklar organik moddalar kontsentratsiyasi o'zgarishiga o'ta sezgir bo'ladilar. Shu sababli ulardan yalpi, bir martalik suv tashlashda, ayniqsa ular tarkibida toksik moddalar bo'lgan hollarda, qo'llash tavsiya etilmaydi. Aerotenk suvning kirish joyidan chiqish joyiga qadar masofa 1:50 bo'lsa, siqib chiqargich kabi ishlaydi.

Siqib chiqaruvchi aerotenklarning bir turi – aerotenklar yo'laklarida pastki qismida tirqishlari bo'lgan engil tik to'siqlar o'rnatish bilan sektsiyalarga ajratilgani. Loyqaaralashmasining tirqishlar orqali harakati tezligi – 0,2 m/s dan kam. O'ng sektsiya kontsentratsiyani pasaytirish maqsadida kattaroqhajmli qilib yasaladi. Sektsiya yo'laklari uzunligi 60-80 m ga teng qilib ishlanadi. havo ko'proq aerotenk boshiga uzatiladi.

Boshlang'ich suvining uzatilishi hamda oxiridagi qoldiq loyqaning chiqarilishi bir maromda bajarilishi bilan ajralib turadi. Oqava suvlarning loyqaaralashmasi bilan to'liq aralashib, qo'shilib ketishi kontsentratsiyalarning tenglashuvini ta'minlaydi. Aralashtiruvchi aerotenklardan yuqori kontsentratsiyalangan oqovalarni (BPK_{20} to 1000 mg/l) tozalash uchun foydalanadilar.

Suv yoyib kiritiladigan aerotenklar aralashtirgich va siqib chiqargichlar o'rtasida – oraliq o'rin egallaydi. Kislorod bo'yicha optimal shart-sharoit mavjud emas. Suyuqlik turli marom bilan uzatiladigan aerotenk. Oqovasuv yo'lak uzunligi bo'yicha kamayib boradigan tarzda uzatiladi.

Regeneratorlar $BPK_{20} > 150$ mg/l bo'lganida, yoki suvda zararli qo'shimchalar mavjudligida o'rnatiladi. Iflosliklar tezda loyga o'tib, 10-30 daqiqada suv 50 % ga, 1.5-3 soat orasida esa butunlay tozalanadi (sezilarli tarzda nitrifikatsiya hodisasi yuz berishi tufayli suvni aerotenklarda bundan ortiq tutib turish maqsadga nomuvofiq).

Aerotenklar hisobi

Istalgan turdagi aerotenklar hisobida aeratsiya davrini aniqlash asosiy vazifa hisoblanadi.

Aerotenkda bo'lish vaqti:

$$t_{at} = \frac{2.5}{\sqrt{3}} \lg = 1,19$$

bunda, a_i – loyqadozasi:

regeneratorsiz aralashtirgich-aerotenk uchun – 3 g/l

regeneratorli aralashtirgich-aerotenk uchun – 2-3,5 g/l

regeneratorsiz siqib chiqaruvchi aerotenk uchun-3-5 g/l

regeneratorli siqib chiqaruvchi aerotenk uchun-3-5 g/l

Len – boshlang'ich BPK

Lex – yakuniy, tozalash darajasini hisobga olgan BPK, biroq kamida 15 mg/l.

Loyqaga tushadigan yuklama
$$q_i = \frac{24(L_{en} - L_{ex})}{a_i(1-s)t_{atv}} = 1426,89$$

S – balchiq kulliligi, S = 0,3.

Aerotenkdagi jadval balchikning qayta aylanish darajasi Ri ikkilamchi tindirgichlar ishlari inobatga olinib, muvofiklashtirilgan xisob-kitoblar bilan aniklanadi:

$$Ri = \frac{ai}{\frac{1000}{Ji} - ai} = 0,64$$

Ji – loyqaindeksi o'lchami. Eksperimental tarzda, loyqaaralashmasiga 1 g/l ga qadar suv qo'shib aralashtirishda loyqaga tushgan yuklamaga bog'liq ravishda aniqlanadi. Loyqaindeksi faol loyqaning 1 g quruq moddasi 30 daqiqa tindirilganidan keyin egallagan ml lardagi hajmga teng. Avval analog bo'yicha qabul qilinadi.

Regeneratordagi loyqadozasi (me'yori)

$$a_r = a_i \left(\frac{1}{2R_i} + 1 \right) = 3,0$$

Solishtirma oksidlanish tezligi

$$\rho = \rho_{\max} \frac{L_{ex} C_{O_2}}{(L_{ex} C_{O_2} + K_l C_{O_2} + K_{O_2} L_{ex})(1 + \phi a_i)} = 34,08$$

bunda,

ϕ – faol loyqa parchalanish maxsulotlarining ingibirlanishi koeffitsienti

ρ – oksidlanishning maksimal tezligi

C_{O_2} – erigan kislorod konsentratsiyasi (2-3 mg/l),

K_1 – ifloslanuvchi organik moddalrni doimiy xususiyati

K_{O_2} – ifloslanuvchi organik moddalarni tavsiflovchi doimiy xususiyati, mg Og/l.

Iflosliklarning oksidlanish davri:

$$t_0 = \frac{L_{en} - L_{ex}}{R_i a_r (1-s)\rho} = 3,06 \text{ Regeneratsiya davri} \quad t_r = t_0 - t_{at} = 1,87$$

So'ng loyqaga tushadigan yuklamani aniqlash uchun oqovasuvlarning aerotenk – regeneratordagi bo'lib turish vaqtini:

$$t = (1+R_i)t_{at} + R_i t_r = 4,48$$

Tizimdagi loyqaning o'rtacha dozasini aniqlash zarur:

$$a_{im} = \frac{(1+R_i)t_{at}a_i + R_it_r a_r}{t} = 3,0$$

Loyqaga tushadigan yuklama $q_i = \frac{24(L_{en} - L_{ex})}{a_i(1-s)t_{atv}} = 1426,89$

Shundan keyin barcha hisob-kitoblarni q_i ning avvalgi va keyingi ko'rsatkichlari taxminan muvofiq kelguniga qadar aniqlantiriladi. Umumiy sarf

$$q_w = \frac{q_{1max,ч.} + q_{2max,ч.} + q_{3max,ч.}}{3} = 2277,42$$

Aerotenkning sig'imi:

$$W_{at} = t_{at}(1+R_i)q_w = 5681,85$$

Regenerator sig'imi:

$$W_r = t_r R_i q_w = 1415,50$$

Umumiy sigimi:

$$W = W_{at} + W_r = 7097,34$$

Bitta aerotenk sigimi

$$W_{1\text{аэротенк}} = \frac{W}{n} = 3548,67$$

Barcha aerotenklarda quyidagicha hisoblab topiladi:

1) faol loyqaortishi:

$$P_i = 0.8S_{cdp} + K_g L_{en} = 184,74$$

Bunda S_{cdp} – mexanik tozalashdan keyin mualla? moddalar kontsentratsiyasi.

K_g – loyqaortishi koeffitsienti.

2) Xavoning solishtirma sarfi:

$$q_{air} = \frac{q_{O_2}(L_{en} - L_{ex})}{K_1 \cdot K_2 \cdot K_T \cdot K_3 \cdot (C_a - C_{O_2})} = 7,85$$

q_{O_2} – olingan BPK ning 1 mg da davoning solishtirma sarfi, mg/na larda;

K_1 – qabul qilingan aerator turini hisobga oluvchi koeffitsient;

K_2 – aeratorning botirilish chuqurligiga bog'liq koeffitsient;

K_T – oqovasuvlarning xaroratini hisobga olgan koeffitsient;

$$K_T = 1 + 0,02(T_w - 20) = 0,96$$

T_w – yoz mavsumidagi oylik O'rtacha xarorat

K_3 – suv sifati koeffitsienti, shaxar Oqava suvlari uchun 0,85 kabul kilinadi;

S_a – havodagi kislorodning eruvchanligi;

$$S_a = \left(1 + \frac{h_0}{20.6}\right) * C_T = 11,41$$

Muxit bosimiga tugrilash quyidagi ifoda orqali aniklanadi:

$$S_T = \frac{S * P}{760} = 9,40$$

S – berilgan suv xarorati;

R – muxit bosimi, mm.sim.ust.

h_0 – shamollatgichni chuktirishni chukurligi, m;

S_0 – aerotenkdagi kislorodning O'rtacha kuyukligi, birinchi yakinlashuvda $S_0 = 2$ mg/l kabul kilinadi.

Shamollatish jadalligini I_a m³/(m²soat), quyidagi ifoda orqali aniqlash joiz:

$$I_a = \frac{q_{air} H_{at}}{t_{at}}$$

bunda, $t_{at} = t_{atv} = t_{atm}$ - shamollatish davri;

H_{at} – aerotenkni ishchi chuʻurligi, m. Ortiqcha jadal balchik miqdori, q_i m³/soat, quyidagi ifoda buyicha aniklanadi:

$$q_i = P_i * q_w$$

Aylanuvchan jadal balchik foiz, m³/soat quyidagi ifoda buyicha aniklanadi:

$$\Pi = \frac{a_i}{a_0 - a_i} * 100 = 11,11$$

bu erda, a_0 – aylanuvchi balchik kuyukligi 30 g/l ga teng kabul kilinadi. Aerotenklar va biologik xovuzlar uchun shamollatgichlar sonini N_{ma} quyidagi ifoda buyicha aniqlash lozim.

$$N_{ma} = \frac{q_{O_2} (L_{en} - L_{ex}) W}{1000 K_T K_3 \left(\frac{C_a - C_{O_2}}{C_a} \right) t Q_{ma}} = 477,41$$

bunda W – aerotenk xajmi (butunicha);

t – aerotenkda bo'lish vaqti (umumiy),

21 jadval

Ogava suvlarni bioximiktozalash

Oqava suvlarni bioximiktozalash											
No	Ayrotelar xisobi										
1	Cho'kindi indeksi, Jat	см²/г	130,00	59,18	65,09	65,98	66,10	66,12	66,12	66,12	66,12
2	Suvning aerotenkda bo'lish vaqti, tat	час	1,19	2,00	2,000	2,000	2,000	2,000	2,000	2,000	2,000
3	Len	мг/л	293,77	162,57	162,570	162,570	162,570	162,570	162,570	162,570	162,570
4	Lex	мг/л	44,07	24,39	24,390	24,390	24,390	24,390	24,390	24,390	24,390
5	Qabul qilish vaqti, ta	час	2,00	2,00	2,000	2,000	2,000	2,000	2,000	2,000	2,000
6	Cho'kindiga tushadigan og'irlik, qi	м³/час	1426,89	291,75	350,857	359,752	360,982	361,150	361,173	361,177	361,177
7	Chokmaning kulsimonligi, s		0,30	0,30	0,300	0,300	0,300	0,300	0,300	0,300	0,300
8	Cho'kindi miqdori, ai	мг/л	3,00	3,00	3,00	3,00	3,00	3,00	3,00	3,00	3,00
9	Achish davri, to	час	3,06	4,89	4,564	4,519	4,513	4,512	4,512	4,512	4,512
10	Jonli cho'kindining qayta aylanish darajas	м	0,64	0,22	0,243	0,247	0,247	0,247	0,247	0,247	0,247
11	Qayta tiklanishdagi Cho'kindi miqdori, ar	мг/л	5,35	9,95	9,18	9,08	9,06	9,06	9,06	9,06	9,06
12	Achish tezligi, p	мг/(г.ч)	34,08	18,80	19,41	19,50	19,51	19,51	19,51	19,51	19,51
13	Ergan kislorod konsentratsiyasi, C0	мг/л	2,00	2,00	2,000	2,000	2,000	2,000	2,000	2,000	2,000
14	Faol loyiga parchalanish maksulotlarining igibirlanishkoefisenti,	л/г	0,07	0,07	0,070	0,070	0,070	0,070	0,070	0,070	0,070
15	Ifloslantiruvchi organik moddalar xossalaringining konstantasi, K1	мг БПКпол	33,00	33,00	33,000	33,000	33,000	33,000	33,000	33,000	33,000
16	Kislorod tasiri konstantasi, K0	мг Ог/л	0,625	0,625	0,625	0,625	0,625	0,625	0,625	0,625	0,625
17	Achishning maksimal tezligi, pmax	мг/(г.ч)	85,00	85,00	85,000	85,000	85,000	85,000	85,000	85,000	85,000
18	Qayta tiklanish davri, tr	час	1,87	2,89	2,564	2,519	2,513	2,512	2,512	2,512	2,512
19	Aerotenk-regenerator tizimida oqava suvni bo'lib turish vaqti	час	4,48	3,06	3,107	3,115	3,116	3,116	3,116	3,116	3,116
20	Tizimdagi cho'kindining o'rtacha miqdor	мг/л	3,63	4,42	4,238	4,213	4,210	4,209	4,209	4,209	4,209
21	Aerotenk sig'imi, wat	м³	5681,85								
22	Regenerator sig'imi, wr	м³	1415,50								
23	Suv maksimal tarizda kelib tushadigan aerasiya vaqtida oqava suvlarning	м³/час	2277,42								
24	Umumiy inshoot sig'imi, w	м³	7097,34								
25	Bitta inshoot sig'imi, w1	м³	3548,67								

21 jadval davomi

[illegible]

Stabilizatorlar konstruktsiyasiga ko'ra birlamchi tindirgichlardagi ortiqcha faol loyqava quyqani 100% regeneratsiyalovchi aerotenk-siqib chiqargichdan

iborat. Stabillashtirish jarayoni aerob sharoitda amalga oshib, bu maqsadda stabilizatorga havo puflash stantsiyasidan havo quvurlari bo'ylab havo etkazib beriladi. Stabilizatsiya davrida organik kulsiz moddalarning asosiy qismi oksidlanish o'ibatida parchalanadi. Stabillashgan quyqa namdan osonlik bilan xalos bo'lishi bilan farqlanadi, ammo stabilizatorlan oldin, nam quyqa uzatish liniyasida gelmintsizlantiruvchi moslama o'rnatish shart.

Aerob stabilizatorni hisoblash uchun quyidagi parametrlar aniqlanishi shart: Loyqadavri

$$\tau = \frac{t_{at} \cdot a_{im} \cdot 1000}{C_{ex.a\ddot{a}p} \cdot 24} = 2,94(\text{sut}),$$

t_{at} , a_{im} , $C_{ex.a\ddot{a}p}$ parametrlari aerotenklar hisobidan qabul qilinadi; Zichlanmagan faol loyqaning stabilizatoridagi barqarorlashuv vaqti

$$t_{ST.nl} = \frac{(8 \div 10) + 0.02(20 - T_a)(\tau + 5)}{1.08^{20 - T_c}} = 9,55(\text{sut})$$

bu erda T_a va T_c –loykaning aerotenk va stabilizatoridagi xarorati $^{\circ}\text{S}$; Kislorodning solishtirma sarfi

$$q = \frac{0.96 + 0.016\tau}{1 + 0.108\tau} = 0,76(\text{kg O}_2/\text{OB});$$

Ortiqcha loyqava quyqaning barqarorlashuv vaqti

$$t_{ST} = t_{ST.nl} + 2B = 10,65(\text{kun}), \text{ каерда, } B = \frac{M_{mud}^s}{M_{tot}^s};$$

Loyqava quyqa aralashmasi uchun kislorodning solishtirma miqdori

$$q_c = q_{nl}(1K0.4B\sqrt{\tau}) = 1,05;$$

Aerob stabilizatorning zarur (talab etilgan) hajmi

$$V_{ST} = W_{tot} \cdot t_{ST} = 2021,28 (\text{m}^3);$$

1m³ aralashmani oksidlantirish uchun ?avoning solishtirma miqdori

$$D = \frac{q_c \cdot M_{tot}^s \cdot 1000}{K_1 \cdot K_2 \cdot K_T \cdot K_3 \cdot (C_a - C)}$$

Aerob stabillashtirish (barqarorlashtirish) uchun havo sarfi aralashma konsentratsiyasiga bog'liq ravishda stabilizatorning 1m³ si?imiga 1-2 m³/s deb qabul qilinadi.

Cho'kindi miqdorini hisobi 22 jadvalda keltirilgan

№	Cho'kindi miqdori hisobi		
1	Birlamchi tindirgichlardan olingan quruq modda bo'yicha quyqa miqdori M_{mud}	τ/cyt	2,80
2	K quyqa miqdorining yirik fraksiyalar hisobiga kupayishi koeffitsienti (1,1-1,2)		1,2
3	Mexanik tozalash samarasi Θ		0,6
4	Quruq modda bo'yicha faol loyqa miqdori $M_{a.mud}$	τ/cyt	2,31
5	Quruq modda bo'yicha umumiy quyqa miqdori M_{tot}	τ/cyt	5,12
6	Gigrosikopik namlik p_g, p_g'	%	6
7	$S_{mud}, S_{a.mud}$ – Mutloq quruq loyqa va nam chukindining qoldiq kuli, (25-27%)	%	27
8	M_{mud}^s	τ	1,92
9	$M_{a.mud}^s$	τ	1,59
10	Kulsiz mutloq quruq modda bo'yicha quyqa va loyqa miqdori M_{stot}^s	τ	3,51
11	p_{mud} – nam loyqa namligi	%	95
12	$P_{a.mud}$ – loyqa namligi	%	99
13	Nam loyqa miqdori W_{mud}	m^3/cyt	35,64
14	Ortiqcha faol loyqa hajmi $W_{a.mud}$	m^3/cyt	154,17
15	Quyqa va faol loyqaning umumiy hajmi W_{tot}	m^3/cyt	189,81
16	Aralashmaning o'rtacha namligi p_{mix}	%	98,15

	Aerob stabilizator hisobi		
1	Loyqa davri τ	cyt	2,94
2	Aerotenkdagi loyqa temperaturasi T_a	$^{\circ}C$	18,00
3	Stabilizatoridagi loyqa temperatura T_c	$^{\circ}C$	19,00
4	Zichlanmagan faol loyqaning stabilizatoridagi boshqaruv vaqti $t_{cr, a.m}$	cyt	9,55
5	Kislorodning solishtirma sarfi $q_{a.m}$	$kg\ O_2/kg$	0,76
6	Ortiqcha loyqa va quyqaning barqarorlashuv vaqti t_{cr}	cyt	10,65
7	Loyqa va quyqa aralashmasi uchun kislorodning solishtirma miqdori q_c		1,05
8	Aerob stabilizatorning talab etilgan hajmi V_{cr}	m^3	2021,28
9	Aerob stabilizatorning talab etilgan hajmi $V_{cr\ 1}$	m^3	1010,64

Ikkilamchi tindirgichlar

Ikkilamchi tindirgichlar loyqaaralashmasi yoki suv bioparda aralashmasini tindirish uchun mo'ljallangan. Ikkilamchi tindirgichlar, birlamchilari kabi, vertikal (tik), gorizonta (yotiq) va radial bo'ladi.

Biofiltrlardan keyingi hisob: Tindirgichlar yuzasiga tushadigan yuklama:

$$q_{ssb} = 3,5 \cdot K_{set} \cdot u_0 = 3,5 \cdot 0,45 \cdot 1,4 = 2,268$$

Aerotenklardan keyingi hisob:

$$q_{ssa} = \frac{4.5 K_{sst} H_{set}^{0.8}}{(0.1 I_i a_i)^{0.5-0.01r}} = 1,176$$

Shundan so'ng tindirgichlar yuzasining umumiy maydoni vaqabul qilinayotgan tindirgichlar miqdori hisoblab topiladi.

Ikkilamchi tindirgichlar konstruksiyasi quyidagicha qabul qilingan: Radial tindirgichlar Bu – tik po'lat quvur asta-sekin kengayib bo'linadi va u tindirgichdagi suv sathidan pastda tugaydi. Undan chiqib, aralashma metallardan yasalgan, muvofiqlovchi tsilindr (balandligi 1,3 m) devorlari bilan cheklangan bo'shliqqa tushadi.

Tsilindr loyqaaralashmasining tindirish zonasiga chuqurlikda tushishini ta'minlaydi. qisman tozalangan suv suv to'kkich orqali yig'ma halqa lotokda to'planadi va undan kiritish kamerasiga kelib tushadi.

Faol loyqa, loyqa suruvchi quvur orqali gidrostatik bosim yordamida loyqa kamerasiga olib tashlanadi, u erdan ejektor yoki plunjer nasosi yordamida qismanqayta tiklashga va qismanqaytadan ishlatishga yuboriladi. Ikkilamchi garizontal va vertikal tindirgichlar konstruksiyasiga ko'ra birlamchi tindirgichlar bilan bir xil bo'ladilar.

Faol loyqa qulash burchagiga ega bo'lmaganligi uchun, ikkilamchi tik (vertikal) tindirgichlardan foydalanishda uni tindirgich devorlaridan majburiy tozalab tashlash choralarini ko'rish talab etiladi.

Ikkilamchi tindirgichlar hisobi 22jadvalda keltirilgan

Ikkilamchi tindirgich hisobi 23 jadvalda keltirilgan

23 jadval

Ikkilamchi tindirgich hisobi

